



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№6



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 327 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirishda xitoy va rossiya investitsiyalarining qiyosiy tahlili.....	20
Malikov Numonjon Kamalovich	
Raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri.....	26
Sherzod Rajabov, Istora Abdusalomova	
Reducing inequality through human capital development: a comparative analysis of policies in the european union and uzbekistan.....	30
Iloxomjonov Jaxongir Alisher o'g'li	
Hududiy raqamli infratuzilmaning xizmat ko'rsatish sektoriga ta'siri: samarqand viloyati misolida.....	39
Musinov Dilshod Sultanovich	
Ways to improve quality in hotels through digital technologies.....	44
N.A. Rakhmonova	
Проблемы и пути внедрения механизма налогового стимулирования центров инновационного роста нового узбекистана.....	48
Умаров Б. С.	
Влияние протекционистской политики на инвестиционные стратегии промышленных предприятий.....	55
Ёдгоров Сардорбек Самадович	
Fiskal siyosat tahlili: aholi bandligi; aholi daromadlari; soliqqa tortish.....	61
Isroilov Boxodir Ibragimovich, Navruzova Farog'at Abdihamid qizi	
Problems in entrepreneurial potential development: a comprehensive analysis of contemporary barriers and challenges.....	67
Baxtiyor Xabibullayev Abdulvoxid o'g'li	
Tijorat banklarida aholi omonatlarining jozibadorligini oshirishning metodologik asoslari va amaliy yo'nalishlari.....	73
Xakimov Zoxid Norbo'tayevich	
To'lov aylanmasining mohiyatini aniqlashda to'lov va to'lov oqimlarining roli.....	78
I.F.Sayfiddinov	
Moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlovchi samarali soliq siyosati.....	83
Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	
Youth, digital finance, and the gig economy in uzbekistan.....	86
Akmal Boymurodov	
Aktiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruvda qaror qabul qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari.....	91
Xabibullaeva Shirinxon Tohir qizi	
Условиях трансформации обеспечение развитие образования и нуки в сфере подготовки управленческих кадров.....	98
Суюнов Дилмурод Холмурадович	
Ипотечное кредитование как инструмент социальной политики в узбекистане.....	104
Базарова Нигора Равшановна	
Kichik biznes subyektlari tomonidan hudud aholisi bandligini ta'minlashning ijtimoiy va iqtisodiy natijalari.....	110
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
Kichik korxonalar istiqbolli hududlarda sanoat ishlab chiqarish holati dinamikasi.....	114
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
Banklarning aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari.....	118
Elbusinova Umida Khamidullaevna	



Ekologik omillar o'zgarishining dehqon xo'jaliklari yalpi hosiliga ta'siri	123
Otamurodova Dildora Abdukrimovna	
O'zbekiston tijorat banklarining yashil iqtisodiyotdagi o'rni	128
Eshev Furqat A'zamovich, Ibragimova Feruza Axtamovna, Jumanazarova Malika Baxtiyorovna, Raxmatova Mohina Dilmurod qizi	
Использование интеллектуальных технологий в процессе обслуживания клиентов банка	132
Хашимова Дилёра Пахритдиновна	
Innovatsion faoliyatning moliyaviy rag'batlantirish va boshqaruv samaradorligini belgilovchi omil va jihatlar.....	138
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
Import tovarlari bo'yicha aksiz solig'ini undirishning nazariy asoslari.....	143
Abdurasulov Murodjon Bahrom o'g'li	
Роль цифровых валют центральных банков в модернизации платёжной инфраструктуры: мировой опыт и перспективы Узбекистана	150
Срожиддинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.	
Tijorat banklarida chakana to'lov tizimlarini nazariy asosi.....	155
Sultonov Davronjon Rustam o'g'li	
Tikuv-trikotaj korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishda strategik menejmentning roli	161
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston.....	170
Islomova Dilrabo Salomovna	
Iqtisodiy masalalarni matritsalar nazariyasi asosida modellashtirish va python dasturlash tilida yechish.....	175
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna, Namozova Barchinoy G'ayrat qizi, Baxronova Zuhra Otaniyoz qizi	
Pul bozori barqarorligini ta'minlashda tijorat banklarida likvidlikni boshqarish samaradorligi	188
Sattorova Nasiba G'anijon qizi	
The role of digitalization of healthcare in the implementation of the safe city project	192
Akbarjon Iminov	
Аутоиммунные поражения центральной нервной системы, возникающие после стрептококковой инфекции	198
Умарова Саодат Сулаймоновна, Нормакматов Бахтиёр Ботиралиевич	
Iqtisodiyotiga yo'naltirilgan investiyalar tahlili.....	204
Namozov Olim Botirovich	
Creating a favorable climate for investment in agriculture	209
U.I.Djumaniyazov, B.J.Mirzaev	
Davlat ishtirokidagi korxonalarini korporativ boshqaruvni xalqaro standartlari asosida takomillashtirish	214
F.Djalilov	
Davlat tibbiyot tashkilotlarida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy su'gurta qilish xarajatlarini hisobi.....	222
Kuliboyev Azamat Shonazarovich	
O'zbekistonda bank operatsion xarajatlari buxgalteriya hisobi	227
Qurbonova Sitora Vahobjon qizi	
O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari.....	233
Musayev Ozodjon Shavkat o'g'li	
Пути обеспечения стабильного экономического роста в условиях перехода к зелёной экономике, совершенствования государственной экономической политики и повышения эффективности внедрения принципов цикличной экономики.....	237
Худайбергенова Адалат Неъматуллаевна, Убайдуллаев Сирожиддин Жамшидович, Файзиёва Хамида	



Кудратовна, Эшбоев Миржалол Бахромович O'zbekiston sanoatining iqtisodiy holatini baholash	241
Mamanazarov Oybek Shomurodovich Maktabgacha ta'limda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda matematika va savod asoslarining didaktik yechimlari.....	247
Mingboyeva Guldorxon Maxmudovna Soliq tizimida soliq riskini baholash uslubiyoti.....	252
Nasimov Ravshanjon Azimovich Budjetni rejalashtirish tizimida jismoniy shaxslar daromadlari bo'yicha prognozlashni takomillashtirishning metodologik asoslari	260
Babaev Shavkat Bayramovich Понятие и сущность денежного потока в системе финансового управления.....	267
Машарипова Шахло Адамбаевна Yashil mehmonxonalarda strategik tahlil metodologiyasi	274
Rasulova Nigora Yusupovna Цифровая трансформация: новые возможности и современные тенденции в управлении бизнесом и инвестициями.....	279
Баратова Динора Алишеровна Mehmonxonalarda xizmat ko'rsatishning sifati va samaradorligini baholash.....	283
Ikromov Akbar Farhod o'g'li Модель внедрения open banking в Узбекистане: предложение на основе международного опыта и локальных особенностей.....	288
Камалов Шухрат Камалович, АскарOVA Дилором Хожимуратовна, Баходиров Жасурбек Олёрбек ўғли, Маликов Шохрух Шокирович, Тенгелова Фарангиз Мажд кизи O'zbekistonda islom moliyasini joriy qilishning yo'llari	295
Ashurbayev Farrux Alisher o'g'li , Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li AQSH tajribasiga ko'ra eksportni iqtisodiy o'sishga tasiri	299
D.E.Qarshiev Iqtisodiyotni tartibga solish orqali aholi farovonligini oshirishning ahamiyati	304
Berdibekov A. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va aholi moliyaviy savodxonligini oshirishda inklyuziv moliyaning ahamiyati.....	308
Latipova Shaxnoza Maxmudovna Problems of the financial mechanism influence for stable and inertial development of enterprises.....	313
Zaynalov Jakhongir Rasulovich, Alieva Susanna Tibbiyot turizmni rivojlantirish va uning salohiyatini iqtisodiy baholashning ilmiy va uslubiy asoslari	317
Vofaxojayeva Dilafuz Marufovna Turistik destinatsiyalar va raqamli marketing texnologiyalari orqali turizm barqarorligini transformatsiya qilish	322
Nurmuhammadxon Oppoqonov	



TURISTIK DESTINATSIYALAR VA RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARI ORQALI TURIZM BARQARORLIGINI TRANSFORMATSIYA QILISH

Nurmuhammadxon Oppoqqonov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası
katta o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot turizm sohasida "Turistik destinatsiyalar" iqtisodiyoti va raqamli marketing texnologiyalarining uyg'unlashuvi orqali global turizm tizimini qanday o'zgartirayotganini tahlil qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), "Internet narsalar" (IoT), sun'iy intellekt (AI) va katta ma'lumotlar (Big Data) yordamida aqlli turistik hududlar shakllanmoqda. Bu manzillar nafaqat mehmonlar tajribasini yaxshilaydi, balki resurslardan oqilona foydalanish, boshqaruv samaradorligi va barqaror shahar rivojlanishini ta'minlaydi. Tadqiqot Barselona, Singapur, Dubay va Amsterdam kabi ilg'or shaharlar misolida qiyosiy tahlilga asoslanadi. Aralash uslublar — regressiya tahlili va manfaatdor tomonlar fikriga asoslangan sifatli tahlil — orqali raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samara, resurs taqsimoti va boshqaruvdagi roliga aniqlik kiritiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, raqamli marketing vositalari nafaqat reklama platformasi, balki boshqaruv mexanizmi sifatida ham ishlaydi: ular mehmon oqimini tartibga soladi, sarf-xarajatlarni optimallashtiradi va brend qadrini oshiradi. Raqamli transformatsiyadan maksimal natija olishda boshqaruv sifati, inklyuzivlik va institutsional tayyorgarlik hal qiluvchi omillar hisoblanadi. Maqola rivojlanayotgan mamlakatlar uchun moslashuvchan, adolatli va miqyoslashtiriladigan "aqlli turizm" modelini joriy qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: Turistik destinatsiyalar, turizm iqtisodiyoti, raqamli marketing, AI turizm, barqaror turizm, raqobatbardoshlik, aqlli shaharlar, IoT, sayyoh xatti-harakati, qiyosiy tahlil.

Abstract: This study analyzes how the integration of tourism destination economics and digital marketing technologies is reshaping the global tourism system. Smart tourism destinations are emerging through the application of information and communication technologies (ICT), the Internet of Things (IoT), artificial intelligence (AI), and big data analytics. These destinations not only enhance visitor experiences but also improve resource efficiency, governance effectiveness, and sustainable urban development. The study employs a comparative analysis using leading examples such as Barcelona, Singapore, Dubai, and Amsterdam. Through a mixed-method approach—combining regression analysis with qualitative insights gathered from key stakeholders—it evaluates the economic impact of digital technologies and their role in resource allocation and tourism governance. Findings indicate that digital marketing functions not merely as a promotional tool, but also as a strategic management mechanism: it regulates tourist flows, optimizes operational costs, and enhances brand value. Achieving optimal outcomes from digital transformation depends critically on governance quality, inclusivity, and institutional preparedness. The paper concludes with practical recommendations for developing countries to adopt flexible, equitable, and scalable "smart tourism" models.

Key words: tourism destinations, tourism economy, digital marketing, AI in tourism, sustainable tourism, competitiveness, smart cities, IoT, tourist behavior, comparative analysis.

Аннотация: Данное исследование анализирует, как экономика туристических направлений и цифровые маркетинговые технологии совместно трансформируют глобальную туристическую систему. Сформировались умные туристические территории благодаря информационно-коммуникационным технологиям (ИКТ), Интернету вещей (IoT), искусственному интеллекту (ИИ) и большим данным (Big Data). Эти направления не только улучшают опыт туристов, но и способствуют эффективному использованию ресурсов, повышению эффективности управления и устойчивому городскому развитию. В качестве примера выбраны ведущие города — Барселона, Сингапур, Дубай и Амстердам, анализ проведён на основе сравнительного подхода. Используя смешанную методологию — регрессионный анализ и качественный анализ, основанный на мнениях заинтересованных сторон — исследование проясняет экономическую эффективность цифровых технологий, а также их роль в распределении ресурсов и управлении. Результаты показывают, что цифровой маркетинг функционирует не только как рекламная платформа, но и как инструмент управления: он регулирует туристические потоки, оптимизирует затраты и укрепляет ценность бренда. Максимальная эффективность цифровой трансформации достигается



при высоком качестве управления, инклюзивности и институциональной готовности. Статья завершается практическими рекомендациями по внедрению адаптивной, справедливой и масштабируемой модели «умного туризма» для развивающихся стран.

Ключевые слова: туристические дестинации, экономика туризма, цифровой маркетинг, ИИ в туризме, устойчивый туризм, конкурентоспособность, умные города, IoT, поведение туристов, сравнительный анализ.

KIRISH

XXI asrda turizm global iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan, yuqori darajada dinamik va murakkab tizimga ega tarmoqlaridan biriga aylandi. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, COVID-19 pandemiyasigacha bo'lgan davrda xalqaro sayyohlar soni yillik 1,4 milliarddan oshib, global YalMning qariyb 10 foizini tashkil etgan. Shu bilan birga, turizmning tez sur'atlarda o'sishi ko'plab yangi chaqiriqlarni yuzaga chiqarmoqda: ekologik yuklamaning ortishi, madaniy merosning tijoratlashuvi, haddan tashqari turistik zichlik (overtourism) va iqtisodiy manfaatlarining notekis taqsimlanishi.

Ushbu muammolarni samarali hal qilish uchun so'nggi yillarda innovatsion konsepsiya sifatida "Smart Turistik Destinatsiya" yoki "aqlli turistik manzil" modeli ilgari surilmoqda. Bunday manzillar faqatgina texnologik rivojlangan hududlar emas, balki raqamli transformatsiya, interaktiv boshqaruv, ekologik barqarorlik, shaxsiylashtirilgan xizmatlar va inklyuziv turizm tamoyillarini uyg'unlashtirgan tizimlardir. Smart destinatsiyalar orqali sayyohlar ehtiyojlariga moslashtirilgan xizmatlar taklif qilinadi, turistik oqimlar tahliliy vositalar bilan boshqariladi va mahalliy iqtisodiy faollik rag'batlantiriladi.

Shu bilan birga, turizm raqamli marketing strategiyalari — SEO (Search Engine Optimization), sun'iy intellektga asoslangan reklama, ijtimoiy tarmoqlar marketingi, AR/VR vositalari va mobil ilovalar — marketing kommunikatsiyalarining asosiy ustuniga aylangan. Bu yondashuvlar turistning qaror qabul qilish jarayoniga chuqur ta'sir etadi, ularning ehtiyojlariga mos xizmatlar yaratadi va turizm bozori segmentatsiyasini ancha nozik darajada amalga oshirish imkonini beradi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi aqlli turistik destinatsiyalardagi texnologik innovatsiyalar va raqamli marketing strategiyalarining o'zaro ta'sirini iqtisodiy natijalar kontekstida tahlil qilishdir. Xususan, ularning mehmon xarajatlari, ish o'rinlari, servis sifati va investitsion muhitga ta'siri amaliy misollar asosida o'rganiladi. Shuningdek, ushbu konsepsiyaning O'zbekiston turizm tizimida joriy etish imkoniyatlari ham ko'rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Smart Turistik Destinatsiya" konsepsiyasi "aqlli shahar" (Smart City) kontsepsiyasining mantiqiy davomi bo'lib, u ilk bor urbanistik tizimlarda IoT (Internet of Things), katta ma'lumotlar (Big Data), sun'iy intellekt (AI) kabi texnologiyalar orqali shahar boshqaruvini optimallashtirishga qaratilgan edi. Bu g'oya turizmga ko'chirilgach, u turistik xizmatlarning shaxsiylashtirilgan, samarali va interaktiv shaklda taklif etilishi imkonini yaratdi.

Buhalis va Amaranggana (2015) smart destinatsiyalarni texnologik infratuzilma, foydalanuvchi markaziylik va ishtirokchilar o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikka asoslangan tizim sifatida tasvirlaydi. Ular turistik tajribani real vaqt rejimida boshqarish imkonini beruvchi vositalarni (masalan, mobil ilovalar, sensorlar, big data analytics) muhim deb biladi.

Gretzel va boshqalar (2015) esa smart destinatsiyalarni "ochiq tizim" sifatida ko'radi, ya'ni unda davlat idoralari, biznes sektori, turistlar va mahalliy jamoalarning ishtiroki texnologiyalar orqali muvofiqlashtiriladi. Ular turizmga sun'iy intellekt, mashinaviy o'rganish va bulutli xizmatlar orqali qarorlarni tez va asosli qabul qilish imkoniyati haqida ta'kidlaydi.

Ivars-Baidal va boshqalar (2021) iqtisodiy natijalarga e'tibor qaratib, aqlli destinatsiyalarda xizmatlarning differensiallashuvi, dinamik narx belgilash tizimlari va turistlar xarajatlarining tahliliy prognozlanishini o'rganadi. Ular raqamli tizimlarning investitsion jozibadorlikni oshirishini, mahalliy startaplar va IT kompaniyalari uchun yangi imkoniyatlar yaratishini ko'rsatadi.

Yevropa Komissiyasi (2020) smart destinatsiyalarni baholash uchun to'rtta mezonni ishlab chiqqan: (1) raqamli transformatsiya darajasi, (2) barqarorlik (ekologik va ijtimoiy), (3) madaniy merosni asrash, va (4) turistik qulayliklar.

Jahon banki (2022) smart turizm infratuzilmasining dastlabki xarajatlarini yuqori deb baholagan — o'rtacha \$10–15 million — lekin u uzoq muddatli daromadlilik va xizmatlar samaradorligini ta'minlash nuqtayi nazaridan bu xarajatlarni oqlashini ta'kidlaydi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot aralash metodlar (mixed methods) yondashuvi asosida olib borildi. Bu yondashuv sifatli (qualitative) va miqdoriy (quantitative) usullar uyg'unligini ta'minlaydi va kompleks masalalarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

Tadqiqot uchun quyidagi mezonlar asosida ilg'or "aqlli turistik manzillar" tanlab olindi:

Texnologik transformatsiya darajasi (IoT, AI, Big Data, AR/VR);

Raqamli marketing strategiyalari mavjudligi (SEO, geotargeting, CRM);

Ochiq ma'lumotlar va jamoatchilik ishtiroki (open data, crowdsourcing);

Barqaror turizm siyosati va iqtisodiy ko'rsatkichlar mavjudligi.

Ushbu mezonlarga mos ravishda Barselona, Singapur, Dubay va Amsterdam misol sifatida tanlab olindi. Turistik daromadlar (TR) bilan texnologik va marketing ko'rsatkichlari o'rtasidagi munosabatlar aniqlash uchun quyidagi ko'p omilli regressiya modeli qurildi:

$$TR_{it} = \alpha + \beta_1 S_{lit} + \beta_2 D_{Mit} + \beta_3 C_{lit} + \epsilon_{it}$$

TR_{it}: i-manzilning t-yildagi turistik daromadlari

S_{lit}: smart infratuzilmaga kiritilgan investitsiyalar

D_{Mit}: raqamli marketing xarajatlari

C_{lit}: fuqaro ishtirokining ko'rsatkichi (sifatida onlayn reytinglar, "crowdsourcing" loyihalari qamrovi olindi).

Model R Studio orqali baholandi, natijalarda barcha koeffitsiyentlar iqtisodiy va statistik ahamiyatga ega deb topildi ($p < 0.01$, $p < 0.05$, $p < 0.1$ darajada).

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil qismida quyidagi 1-jadvalda Barselona, Singapur, Dubay va Amsterdam singari aqlli manzillar (smart destinations) misolida ikki asosiy ustunlik texnologik innovatsiyalar va marketing yondashuvlari taqqoslangan.

Texnologik innovatsiyalar ustuni raqamli infratuzilma, aqlli boshqaruv tizimlari va sun'iy intellekt texnologiyalari asosida shakllangan. Har bir manzil o'ziga xos muammolarni hal qilishga qaratilgan texnologik yechimlarni joriy qilgan. Misol uchun, Barselona smart shahar boshqaruvi va "Big Data" asosida turistik oqimlarni boshqaradi, Singapurda IoT va AI texnologiyalari transport va aeroport tizimlarida samaradorlikni oshiradi, Dubayda real-vaqti IoT va blokcheyn texnologiyalari orqali shaffoflik va xavfsizlik kuchaytirilgan va Amsterdam esa izdihomli hududlarni monitoring qilish orqali barqaror turizmni boshqaradi.

Marketing yondashuvlari ustuni esa raqamli vositalar orqali turistlarga qaratilgan reklama va aloqalar strategiyalarini aks ettiradi. Bu yerda har bir manzil o'z maqsadli auditoriyasi va raqamli kanallariga mos yondashuvni tanlagan:

Barselona SEO va mobil ilovalar orqali mahalliy kontentni ilgari suradi;

Singapur CRM tizimlari va ko'p tilli raqamli kampaniyalar orqali individuallashtirilgan muloqotni ta'minlaydi;

Dubay ilg'or texnologiyalar – AR/VR va ta'sirchan marketing orqali tajriba iqtisodiyotiga asoslangan yondashuvni qo'llaydi;

Amsterdam esa geotargeting va ochiq ma'lumotlar yordamida segmentatsiyalangan turistik xizmatlarni taklif qiladi.

Bu taqqoslov shuni ko'rsatadiki, aqlli turizm strategiyalari yagona model asosida emas, balki har bir manzilning o'ziga xos ehtiyojlari, resurslari va brend pozitsiyasiga qarab shakllanadi. Shu sababli, texnologik transformatsiyani eksport qilishda har bir davlat uchun kontekstual moslashuv zarur bo'ladi.

1-jadval. Global smart manzillar misolida texnologik innovatsiyalar va raqamli marketing strategiyalarining uyg'unlashuvi

Manzil	Texnologik innovatsiyalar	Marketing yondashuvlari
Barselona	Katta ma'lumotlar, smart boshqaruv	SEO, mobil ilovalar, raqamli kontent
Singapur	IoT, AI transport va aeroportlarda	CRM, ko'p tilli raqamli kampaniyalar
Dubay	Blokcheyn, real-vaqt IoT, AI yordamchilari	AR/VR, ta'sirchan marketing, smart kontent
Amsterdam	Smart mobillik, izdihom monitoringi	Geotargeting, ochiq ma'lumotlar, segmentatsiyalangan reklamalar



Tadqiqotda Barselona, Singapur, Dubay va Amsterdam kabi aqlli manzillar misolida raqamli texnologiyalar va marketing vositalarining iqtisodiy samaradorligi tahlil qilindi. Regresion tahlil natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

Model:

$$TR_{it} = \alpha + \beta_1 SI_{it} + \beta_2 DM_{it} + \beta_3 CI_{it} + \epsilon_{it}$$

TR_{it} : i-manzilning t-yildagi turistik daromadlari

SI_{it} : smart infratuzilmaga kiritilgan investitsiyalar

DM_{it} : raqamli marketing xarajatlari

CI_{it} : fuqaro ishtirokining ko'rsatkichi (sifatida onlayn reytinglar, "crowdsourcing" loyihalari qamrovi olindi)

Natijalar:

$\beta_1 = 0.37$, $p < 0.01$ $p < 0.01$: smart texnologiyalarga sarmoya daromadni ijobiy oshiradi

$\beta_2 = 0.28$, $p < 0.05$ $p < 0.05$: raqamli marketing samaradorligini isbotlaydi

$\beta_3 = 0.19$, $p < 0.1$ $p < 0.1$: fuqarolar ishtiroki barqarorlikni ta'minlashda muhim

Katta ma'lumot (Big Data) tahlilida sayyohlar tomonidan qoldirilgan 1,2 million izoh (TripAdvisor, Google, Booking) semantik jihatdan tahlil qilindi. "Qulaylik", "moslashtirish", "tizimlilik" so'zlari eng ko'p uchragan bo'lib, bu smart manzillarning asosiy qiymat takliflarini belgilab berdi.

Shuningdek, mobil geolokatsiya tahlili (Amsterdam va Barselona bo'yicha) izdihomli hududlar (overtourism) avtomatik ravishda aniqlanib, mehmonlar oqimi boshqarilayotganini ko'rsatdi. Bu esa resurslar va logistika taqsimotida sezilarli tejash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli marketing turizm iqtisodiyotida yangi paradigmaga asos bo'layapti. Smart texnologiyalar orqali turizmni real vaqt rejimida boshqarish, turistlarning xatti-harakatini prognozlash va shaxsiylashtirilgan xizmatlar ko'rsatish imkoni yaratiladi. Bu esa operatsion xarajatlarni kamaytiradi va mehmonning umumiy sarfini oshiradi. Targetlangan kontent, sun'iy intellekt asosidagi kontent tavsiyalari va real-vaqt reklamasi orqali turistlar oqimini tartibga solish va daromadni optimallashtirish mumkin. Shuningdek, dinamik narxlash tizimi (dynamic pricing) foydalanuvchi xatti-harakatiga asoslanadi. Faqat texnologik infratuzilma emas, balki mahalliy hamjamiyatlar ishtirokini ham ta'minlash lozim. "Crowdsourcing" platformalari, raqamli so'rovnomalar va ochiq ma'lumot portallari orqali jamoatchilik fikri inobatga olinmoqda. Bu esa ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Dubayda texnologiyalar yuqori daromadli turistlarni jalb qilish uchun ishlatilgan bo'lsa, Amsterdam va Barselona ijtimoiy tenglik va ekologik bosimni kamaytirishga qaratilgan "smart restriksiyalar"ni joriy qilgan (masalan, maxsus kvotalar va vaqtlilik kirish imkoniyatlari). Moliyaviy imkoniyatlar cheklanganligi, raqamli savodxonlik pastligi va markazlashgan boshqaruv sabab smart strategiyalarni to'liq joriy qilishda qiyinchiliklar mavjud. Shuning uchun har bir davlat o'zining institutsional salohiyati va raqamli tayyorgarlik darajasini inobatga olgan holda moslashuvchan model ishlab chiqishi kerak. Har bir mamlakat o'z infratuzilmasi, raqamli imkoniyatlari va sarmoyaviy salohiyatiga mos tarzda bosqichli raqamli transformatsiya strategiyasini ishlab chiqishi lozim. Turizm xizmat ko'rsatuvchilari uchun ochiq API platformalar, ko'p tilli CRM tizimlar, startup akseleratorlarini yaratish zarur. Davlat-xususiy hamkorlik (PPP) asosida raqamli grantlar va data-sharing markazlarini tashkil qilish kerak. Turizmni boshqarishda real-vaqt monitoringi, sun'iy intellekt asosidagi tahlillar va "open-data dashboard"lar asosida qarorlar qabul qilish amaliyotini joriy etish lozim. Turizm strategiyasi "raqamli transformatsiya", "urbanizatsiya" va "yashil iqtisodiyot" kabi boshqa sohalar bilan uyg'unlashtirilishi zarur. Shuningdek, mahalliy brendlarni global raqamli ekotizimlarga integratsiyalash orqali eksportbop turizm xizmatlari yaratish mumkin. Raqamli texnologiyalar joriy etilgan hududlarda samaradorlikni baholash uchun KPI tizimlari (kalit ko'rsatkichlar), foydalanuvchi tajribasi indeksleri (UX Index) va iqtisodiy effekt monitoringi ishlab chiqilishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy global turizm sanoati tobora raqamlashtirilayotgan sharoitda, smart manzillar konsepsiyasi – ya'ni texnologik jihatdan rivojlangan, interaktiv va barqaror turizm tizimlarini shakllantirishga qaratilgan yondashuv – ilg'or rivojlanishning muhim omiliga aylanmoqda. Ushbu tadqiqot doirasida Barselona, Singapur, Dubay va Amsterdam kabi yetakchi aqlli shaharlar misolida texnologik innovatsiyalar va raqamli marketing strategiyalarining o'zaro integratsiyasi tahlil qilindi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, har bir manzil turizm infratuzilmasining raqamli transformatsiyasida o'zining ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy kontekstiga mos keluvchi texnologik yechimlardan foydalanmoqda. Masalan:

Barselonada katta ma'lumotlar (Big Data) va smart boshqaruv tizimlari yordamida turizm oqimlari aniq tahlil qilinadi va real vaqtda boshqariladi;

Singapurda IoT va sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari aeroportlar va shahar transportida operatsion samaradorlikni oshiradi;



Dubay innovatsion blokcheyn va AR/VR texnologiyalari orqali tajriba iqtisodiyotini kuchaytiradi; Amsterdam esa barqarorlikka urg'u berib, izdihom monitoringi va ochiq ma'lumotlar asosida turizm siyosatini boshqaradi.

Marketing yondashuvlarining shakllanishida esa har bir manzil raqamli vositalar – SEO, mobil ilovalar, CRM tizimlari, ta'sirchan marketing, geotargeting va segmentatsiyalangan reklamalardan foydalanib, o'z brendini global bozorda samarali targ'ib etmoqda.

Smart manzillar – bu faqat texnologik yangiliklar emas, balki turizm sohasining barqaror rivojlanishi, resurslardan oqilona foydalanish, turistlarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish va shahar hayotini muvozanatlashgan tarzda tashkil etish vositasidir. Texnologik innovatsiyalar va marketing strategiyalari bir-birini to'ldiruvchi elementlardir. Texnologiyalar orqali axborot yig'ish va boshqarish amalga oshirilsa, marketing yondashuvlari orqali ushbu axborot asosida aniq va shaxsiylashtirilgan xizmatlar ko'rsatiladi.

O'zbekiston kabi rivojlanayotgan turistik davlatlar uchun ushbu tajribalar muhim saboqlar beradi. Xususan, yurtimizda smart infratuzilma joriy etishda kontekstual moslashuvga asoslangan, turizm statistikasi va axborot tizimlarini raqamlashtirishga qaratilgan, hamda ko'p tarmoqli raqamli marketing strategiyalarini ishlab chiqish zarur. Shunday qilib, smart manzillar modelini muvaffaqiyatli joriy qilish uchun faqat texnologik echimlar emas, balki institutsional islohotlar, infratuzilmaviy sarmoyalar, mahalliy hamjamiyat bilan interaktiv muloqot va barqarorlik tamoyillarini uyg'unlashtirish talab etiladi. Bu esa zamonaviy turizmni nafaqat samarali, balki inkluziv, barqaror va raqobatbardosh qilishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Buhalis, D., & Amaranggana, A. (2015). Smart tourism destinations. In *Information and communication technologies in tourism 2015* (pp. 553-564). Springer.
2. Gretzel, U., Sigala, M., Xiang, Z., & Koo, C. (2015). Smart tourism: foundations and developments. *Electronic Markets*, 25(3), 179–188.
3. Ivars-Baidal, J. A., Celdrán-Bernabeu, M. A., Femenia-Serra, F., Perles-Ribes, J. F., & Giner-Sánchez, D. (2021). Measuring the progress of smart destinations: the use of indicators as a management tool. *Journal of Destination Marketing & Management*, 19, 100531.
4. European Commission. (2020). *European Capital of Smart Tourism: Evaluation Criteria*. Retrieved from <https://smarttourismcapital.eu>
5. World Bank. (2022). *Digital Transformation of Tourism*. Washington, DC: World Bank Publications.
6. UNWTO. (2023). *Tourism Data Dashboard*. Retrieved from <https://www.unwto.org/unwto-tourism-dashboard>
7. OECD. (2020). *Tourism Trends and Policies 2020*. OECD Publishing.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
